

O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARI KAFOLATINING YARATILISHI

Jurayeva Munisa Rahmatovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi

Email: munisajurayeva1204@gmail.com

Tel. 91 584 48 05

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarda O'zbekistonda milliy davlatchiligidan mustahkam poydevori barpo etilganligi, qonun ustuvorligi va inson huquqlari, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan boshqa ajralmas huquqlari joy olgan. Shuningdek, O'zbekistonda inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi haqida yoritilgan.

Abstract: In this article, during the years of independence, the solid foundation of our national statehood was established in Uzbekistan, the rule of law and human rights, his life, freedom, honor and dignity, and other inalienable rights enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Also, It was explained that the promotion, protection and observance of human rights in Uzbekistan is one of the priority directions of the state policy.

Аннотация: В этой статье в годы независимости в Узбекистане были заложены прочные основы нашей национальной государственности, верховенства закона и прав человека, его жизнь, свобода, честь и достоинство, а также другие неотъемлемые права, закрепленные в Конституции Республики Узбекистана. Также, было разъяснено, что продвижение, защита и соблюдение прав человека в Узбекистане является одним из приоритетных направлений государственной политики.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, erkinlik, fuqarolik jamiyati, siyosiy huquq, yuridik kafolatlar, konstitutsiyaviy tuzum.

Keywords: human rights, freedom, civil society, political law, legal guarantees, constitutional system.

Ключевые слова: права человека, свобода, гражданское общество, политическое право, правовые гарантии, конституционный строй

Yangi O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etish va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish yo'lida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi -

VOLUME-2, ISSUE-4

"Inson qadri uchun" hamda "Davlat-inson uchun" tamoyillarini real hayotimizga joriy etishdir. Bu masalada qonunchilikka kiritilayotgan yangiliklar, o'zgartirish va qo'shimchalar demokratik jarayonlarning mustahkam huquqiy asosini yaratmoqda. Ushbu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad inson, uning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir. Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda belgilangan inson huquqlariga oid demokratik qoida va normalar amalda ishlay boshladi. Insonni ulug'lash, uning huquq va qonuniy manfaatlarini ifoda etish hamda har tomonlama kamol toptirish Konstitusiyaning asosiy g'oyasiga aylantirilgan. Ozbekiston tarixining mustaqillik yillari avvalgi davrdan farqli olaroq aynan istiqlol tufayli yurtimizda inson huquqlari va erkinliklari kafolati uchun zarur shart sharoitlar yaratilgani bilan alohida ajralib turadi. Avvalo shuni aytish kerakki, bu Ozbekiston Konstitutsiyasida oz ifodasini topdi. Unda eng oliv qadriyat sifatida davlat va ijtimoiy tizim emas, balki inson huquqi kafolatlab qoyildi. Konstitutsiyaning 13-moddasida «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga kora inson, uning hayoti, erkinligi, shani, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliv qadriyat hisoblanadi», deb belgilab qo'yilgan. Shaxsning sha'ni va qadr-qimmati, uning hayoti va sog'lig'i yoki shaxsiy erkinligi takrorlanmaydigan boylikdir. Konstitusiyamizning 26-moddasida, hech kim qynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning ikkinchi bolimi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb atalishining ozi asosiy qonunning insonparvarligini korsatadi. Uning har bir moddasida fuqarolikka ega bolish va uni yoqotish asoslari, shaxsiy huquq va erkinliklar fuqarolarning siyosiy huquqlari, ularning kafolatlanishi oz ifodasini topgan. Ozbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar hayotning barcha sohalarida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va boshqa munosabatlarda bir birlari bilan teng huquqqa ega boldilar. Istiqlol yillaridagi katta yutuqlardan biri shundaki, Ozbekistonda shaxs erkinligi, inson huquqlarining muhofazasi va kafolati, etiqod, meqnat va kasbni erkin tanlash huquqi, talim olish, ijtimoiy muhofaza va boshqa imkoniyatlar qonun bilan himoya qilinadigan bo'ldi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, mamlakatimizdagi keng ko'lamli islohotlarning samarasini har bir inson o'z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o'z vaqtida va samarali ta'minlash, jamiyatimizning boshqa sohalari kabi inson huquqlari muhofazasiga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ham zamon talabidan kelib chiqib tubdan takomillashtirish bugungi kunning muhim talabidir. Bu vazifa Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili - ombudsman zimmasiga ham alohida mas'uliyat yuklaydi.

VOLUME-2, ISSUE-4

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 22 iyunda qabul qilingan “Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tassidiqlash to'g'risida”gi farmoni bu sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarmoqda. Mazkur farmon asosida milliy strategiya va uni amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” tasdiqlandi. Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, so'z erkinligini ta'minlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, jinoyat sodir etgan shaxslarni afv etish bo'yicha oxirgi yillarda 13 ta farmon qabul qilinib, 4 mingdan ziyod shaxs jazoni o'tash joyidan ozod qilindi. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga pensiya va ijtimoiy sug'urta to'lash tartibi birinchi marta amaliyatga kiritildi. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari - inson va fuqarolarning Konstitutsiya shuningdek qonunlarda mustahkamlangan huquqlari hamda erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan ta'minlashga yordam beradigan vositalar, usullar shu jumladan shart-sharoitlar majmui hisoblanadi.

Inson huquqlari hamda erkinliklarining kafolatlarini quyidagicha turkumlash mumkin:yuridik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy. Yuridik kafolatlar deganda fuqarolarning huquqlari, shu bilan bir qatorda erkinliklari qonunlar asosida huquqiy jihatdan kafolatlanishini anglash mumkin. Yuridik kafolatlarning quyidagi shakllari mavjud: konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar, sudlar tomonidan huquqlar, shuningdek, erkinliklarni kafolatlash, hukumat faoliyatini qayd etib o'tish joiz.

Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari - insonga bekam-u ko'st yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda o'z imkoniyat va talablarining amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqiy maqom. Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan huquq va erkinliklar: qonunlarning mazmuni va qo'llanilishiga hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi; O'zbekistonning har bir fuqarosiga, uning jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, maslagi, shaxsiy va ijtimoiy ahvoldidan qat'i nazar, inson huquqlari va erkinliklari buzilmasligini, sud yo'li bilan himoya qilinishini ka-folatlaydi. Konstitutsiya barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslangan holda, o'zgalarning huquqlariga hurmat bilan qarash tamoyillarini, o'zgalarning qonuniy manfaatlarini, huquq va erkinliklarini buzish hisobiga o'z huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga yo'l qo'yilmaslikka, ijtimoiyadolat va hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan. O'z navbatida respublika hududida yashovchi shaxslar Konstitutsiyada ta'kidlangan huquq va erkinliklarga, xalqaro huquq me'yorlariga rioya etishi zarur.

VOLUME-2, ISSUE-4

Inson huquqlari munosib hayot kechirish va insoniy salohiyatimizni rivojlantirishga imkon berish uchun zarur bo‘lgan barcha insoniy fazilatlar uchun muhimdir. Inson huquqlarini ta’minlash qo‘rquv, ta’qib yoki kamsitishsiz jamiyatda yashash uchun katta ahamiyatga ega.

Inson huquqlari quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Universallik – barcha bir xil darajada inson huquqlariga ega;

Ajralmaslik – ularni hech qachon tortib olish mumkin emas, lekin ba’zida ularni cheklash mumkin — masalan, agar shaxs qonunni buzsa yoki davlat xavfsizligi masalalari uchun;

Bo‘linmaslik – ma’lum bir huquqlar to‘plamidan ikkinchisisiz to‘liq foydalanish mumkin emas;

O‘zaro bog‘liqlik – ma’lum bir huquqni berish yoki uni buzish boshqa huquqlarga ta’sir qilishi mumkin;

Tenglik – barcha insonlar o‘zlarining qadr-qimmati va huquqlarida tengdir;

Kamsitmaslik – har bir inson irqi, tanasining rangi, jinsi, tili va boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar inson huquqlariga ega.

1948 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ommaviy himoya qilinadigan asosiy inson huquqlarini belgilaydigan birinchi yuridik hujjat bo‘ldi. Ikkita pakt — Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966) va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966) bilan birgalikda Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro billni tashkil etadi.

Insonning asosiy huquq va erkinliklari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Ikkinci bo‘limida bayon etilgan. 19-moddada aytilishicha O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi.

Xulosa

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko’radigan bo’lsak, Inson huquqlari - bu butun insoniyatning intilishlari, orzu-umidlarini o‘ziga jamlagan keng qamrovli tushunchadir. Inson huquqlari - bu hozirgi taraqqiyotning asosi va davr talabidir. Inson huquqlari - bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Inson huquqlari har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko‘rsatuvchi muhim mezondir. Shuning uchun ham inson huquqlari xalqaro huquqda va milliy huquqiy tizimda muhim o‘rin tutadi. Bulardan ko’rishimiz mumkinki, inson huquqlari barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas

VOLUME-2, ISSUE-4

huquqlari bo‘lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo‘lmasada hamma uchun bir xil hisoblanadi. Inson Huquqlari xalqaro ko‘lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta’sir ko‘rsatadigan doktrinadir. Inson Huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo‘lib u dunyoning ko‘pchilik taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konvensiyalar orqali tan olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

- 1.Toychiyev, N., ed (2009). "Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari". O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Toshkent: „Adolat“ nashriyoti. p. 216.
- 2.Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. Toshkent.”O’zbekiston”,1992
- 3.Karimov I.A. Istiqlol yo’li: muammolar va rejalar.Asarlar, 1jild
- 4.Karimov I.A. O’zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari.Toshkent. ‘O’zbekiston’
- 5.Mustaqillik to’g’risida deklaratsiya. ‘Sovet O’zbekistoni’,23-iyun,1990.
- 6.O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. ‘O’zbekiston’ 1992.
- 7.O’zbekiston Respublikasi, Ensiklopediya, 1997
- 8.Jo’rayev N., Fayzullayev T., Usmonov Q. O’zbekiston tarixi. Toshkent. ‘SHarq’,1998
- 9.Istiqlolimizning tarixiy ildizlari. Sharq yulduzlari,1995, 1112son
- 10.Yusupov E. Istiqlol yo’lida. Toshkent. ‘Fan’,1996.